

7-10-2019

## THE IDEOLOGY OF JADIDISM IN THE INTERPRETATION OF FOREIGN CRITICS

Sobirjon Muhammadjonovich Daminjanov  
*Namangan State University Senior teacher*

Follow this and additional works at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu>



Part of the [Education Commons](#)

---

### Recommended Citation

Daminjanov, Sobirjon Muhammadjonovich (2019) "THE IDEOLOGY OF JADIDISM IN THE INTERPRETATION OF FOREIGN CRITICS," *Scientific Bulletin of Namangan State University*: Vol. 1 : Iss. 3 , Article 42.

Available at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu/vol1/iss3/42>

This Article is brought to you for free and open access by 2030 Uzbekistan Research Online. It has been accepted for inclusion in Scientific Bulletin of Namangan State University by an authorized editor of 2030 Uzbekistan Research Online. For more information, please contact [brownman91@mail.ru](mailto:brownman91@mail.ru).

---

## THE IDEOLOGY OF JADIDISM IN THE INTERPRETATION OF FOREIGN CRITICS

Cover Page Footnote

???????

Erratum

???????

**JADIDCHILIK MAFKURASI XORIY TANQIDCHILARI TALQINIDA**

Daminjanov Sobirjon Muhammadjonovich

Namangan davlat universiteti

Katta o'qituvchi

**Аннотация:** Maqolada jadid harakati va jadidchilik mafkurasi xorijiy mamlakatlarda o'rganilishi va bu izlanishlarning mamalakatimiz olimlari fikrlari bilan mos tushishi tahlil etilgan. Xorijiy olimlar ishlari va fikrlari bilan asoslangan

**Калит сўзлар:** Jadidchilik, mafkura, ma'rifatparvarlik, adabiyot, adabiy tahlil, mustaqillikkacha va undan keyingi davr.

**ИДЕОЛОГИЯ ДЖАДИДИЗМА В ИНТЕРПРЕТАЦИИ ЗАРУБЕЖНЫХ КРИТИКОВ**

Даминжанов Собиржон Мухаммаджонович

Наманганский государственный университет

Старший преподаватель

**Аннотация:** В статье анализируется изучение джадидского движения и идеологии джадидизма в зарубежных странах и их совместимость с идеями ученых нашей страны. Он основан на работах и идеях зарубежных ученых

**Ключевые слова:** джадидизм, идеология, просвещение, литература, литературный анализ, до независимости и более позднего периода.

**THE IDEOLOGY OF JADIDISM IN THE INTERPRETATION OF FOREIGN CRITICS**

Daminjanov Sobirjon Muhammadjonovich

Namangan State University

Senior teacher

**Abstract:** The article analyzes the study of the Jadid movement and ideology of Jadidism in foreign countries and their compatibility with the ideas of scientists from our country. It is based on the works and ideas of foreign scholars

**Key Words:** Jadidism, ideology, enlightenment, literature, literary analysis, until independence and later period.

Shunday mamlakatlar borki, ularni tarixini yoki adabiyotini o'rganishni iloji yo'q. Hattoki, ularda ommaga ko'rsatishga arzirli tarixlarining o'zi yo'q. Lekin shunday mamlakatlar, xalqlar va elatlar borki, ularning tarixi bu mamlakat, millat va elatlarning qanday qudratga ega ekanligini shundaygina ko'rsatib beradi. Albatta, bu xususiyat jahon olim va ijodkorlarini o'ziga jalb qiladi. Lekin bu qiziqish xorijda qanday talqinda, qaysi tarafdin va qanday manbalar tomonidan o'rganilayotgani bizga ko'pincha qorong'u. Bilamizki XVIII-XIX asrlarda bizning tarixiy intellektual manbalarimiz talon taroj qilish orqali yoki bo'lmasam arzon baholarda mamlakatimizdan olib chiqib ketilgan. Bu

manbalar xorijiy olimlar tomonidan organilib kelingan. Yurtimizda mustaqillik tufayli bu manbalar haqida ma'lumotlarga ega bo'la boshladik. Ayniqsa, information texnologiyalari rivojlanishi bu sohada korgina imkoniyatlar yaratdi. Bu orqali bildikki, bizning tarix va adabiyot xorijda keng miqyosda o'rganiladi. Ayniqsa, jadidchilik harakati va adabiy jarayonlari atroflicha o'rganilgan.

Ma'lumki, mamlakatimizning o'tgan asr boshidagi milliy uyg'onish harakati namoyandalari, ularning faoliyati va asarlari sho'ro davrida muttasil turli siyosiy ayblovlar bilan qoralanib kelindi. Ayni chog'da ilg'or millatparvar ziyolilar, taniqli yozuvchi shoirlar, adabiyotshunos va munaqqidlarda o'sha davrda yashab ijod etgan adiblarning ijodga qiziqish susaymagan. "Masalan, ular Cho'lpon va Fitratlarning taqiqlangan asarlarini imkon topib o'qishgan, fikr yuritishgan. Taniqli munaqqidlardan biri Umarali Normatovning aytishicha, Cho'lpon she'rlari yon daftarlarda qo'lda ko'chirilib o'qilgan. Ozigina imkon tug'ilgan 60-yillardagi kabi «iliq epkin» pallalarida ular ijodini yuzaga chiqarish imkoniyatini izlashgan. Xususan, o'sha 60-yillarning oxiridagi tanqidchilik faoliyatidagi ilg'or tendentsiya fikrlarimizning isbotidir. Bu esa 80-yillarning oxiriga kelib, ayniqsa, istiqloq davrida asr boshidagi jadid adabiyoti muammolari adabiy tanqidning yetakchi yo'nalishlaridan biriga aylangani qonuniy jarayon ekanini bildiradi". [1.58]

Jadidchilik harakatini o'rganish xorijda 2 davrga bo'linadi.

1. Mustaqillikkacha bo'lgan davr
2. Mustaqillikdan keyingi davr

Mustaqillikkacha bo'lgan davrda, yani sovuq urush davrida olimlar yurtimizga kelib arxivlardan yoki badiiy adabiyotlardan o'rganishmagan. Ular asosan xorijga chiqib ketgan manbalarga tayanishgan. Shuni ham ta'kidlash lozimki, manbalar hech qachon tarixiy haqiqatni aytib bermaydi, biroq ular bizga izlanayotgan mavzuyimizni yaqinroq o'rganishga imkon beradi. Xorijda jadidchilik va jadidlarni o'rganishda turli tahliliy jihatlaridan foydalanilgan. Ko'pincha "jadid" so'zi noto'g'ri holda qabul qilinganligi duch kelishimiz mumkin. Ba'zi hollarda buni Rossiya imperiyasidagi jamoat ishlarida faol rol o'ynagan va dunyoviy bilimga ega bo'lgan har qanday musulmonlarni ifodalash uchun qo'llaniladi. [2.34] Boshqacha tar'rif berilganda, musulmonlarning madaniy hayotini isloh qilish haqidagi munozaralarda qatnashganlar, maktablar tashkil etganlar, gazetalar chop etganlar, teatrlarda spektakllar namoyish etganlar va boshqa musulmonlar bilan olib borilayotgan keng islohotlarning zaruriyati va mumkin-mumkin emasligi haqida bahslar yuritgan shaxslar deb tahlil qilish maqsadga muvofiq bo'lardi. Ular boshqa dunyoqarashlarning ko'plab nuqtalarini xayrihohlik bilan qabul qilishardi, biroq, umuman olganda ular islomiy dunyoqarashning vakillari edilar. Aniq ta'rifga kelmaslik jadidchilikni Rus imperiyasidagi islomiy boshqa zamonaviy oqimlar yoki mutafakkirlar bilan birlashtirib yuborishga sabab bo'lishi mumkin. Siyosiy jabhada juda faol bo'lgan tatar va boshqird mutafakkirlari va universitet ta'limiga ega bo'lgan ziyolilari yangi usul maktablari ochish timsolida o'tkazilgan madaniy islohotlarda kamdan kam ishtirok etishardi. Ularni hech qanday shaklda jadid deyishimiz mumkin emas.

Xorijlik olim va adabiyotshunoslar fikriga e'tibor berilsa, ularning markaziy Osiyo xalqlari jadidchilarning islomni yangi davr hayotiga moslashtirishga urinishgandek qabul qilishadi. Lekin davr bilan hamnafas bo'lgan va yangicha hayot fikrlari bilan tanish bo'lgan ziyoli va olimlar bu ziyoli harakatining Islomni o'ta zamonaviy talqin qilish orqali yangi davrga moslashtirishga urinishini Islomni radikal yoki millatchilik ruhida talqin qilishdan saqlab qolishni va millatni ma'rifat nuri bilan to'yintirishni o'ziga maqsad qilib olgan ziyoli va diniy guruh deb atash mumkin. Bundan ko'rinib turibdiki, hozirgi davr Markaziy Osiyo xalqlari jadidlarga hayotni bugungiday bo'lishini ta'minlagan fikrlari uchun minnatdor bo'lishlari kerakday ko'rinadi.

Jadidchilik haqida O'zbekistonda juda ko'p qarama-qarshi fikrlar mavjud. Bugun kun O'zbek tarixshunosligi nuqtai nazaridan olib qaraganda esa, jadidlar milliy qahramonlar, ozodlik kurashchilari, o'zbek xalqining buyuk vakillari hisoblanadilar. Bu harakat a'zolarining ba'zida islomga hech qanday aloqasi bo'lmaganligi haqidagi fikrlarni paydo bo'lish sababini esa jadidlar va jadidchilik haqidagi rasmiy manbalarni o'qigandan keyin tushunib yetish mumkin.

Dunyoda o'zbek adabiyoti bilan qiziqqan, o'rgangan va o'z fikrini bildirgan olimlar ko'p. Ammo adabiyotimizga har doim ham ilmiy tomondan asoslangan va xolisona fikrlar bilan qarashmagan. Ba'zi bir olimlar hali o'zbek adabiyoti bilan hali yaqindan tanishmay, ijod mahsulini asl mohiyatini yetmay turib o'zlarining fikrlarini bildirishganiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Aslida bizning adabiyotimizning muxlisi bo'lib, ijodkorlarimizning asarlarini asliyatdan o'rganish - bu baxtdir. Shu sababli mustabid tuzum adabiyoti siyosati yumshagach, va ayniqsa, mustaqillikdan keyingi davrda xorijlik tadqiqotchilar yurtimizga kelib asl manbalar bilan o'rganib, adabiy jaryonni yangicha anglash va talqin etib o'zlarining xolisona fikrlarini jahon ommasiga taqdim etishlariga imkon tug'ildi. Bu kabi olimlar sirasiga yaqqol misol qilib Amerika Qo'shma Shtatlarining Kaliforniya shtatining Karlton kolleji profesori Adib Xolidni olishimiz mumkin. Bu olim o'zbek adabiyotida alohida o'riniga ega bo'lgan jadidchilar xarakati va ularning ijodini mukammal o'rganib chiqadi. A. Xolid o'zining "Musulmonlarning madaniy isloh siyosati "Markaziy Osiyoda jadidizm" (The Politics of Muslim Cultural Reform. Jadidism in central Asia") kitobi ishonchli manbalar asosida yozilishi gapimizga dalil bo'la oladi. Muallif ma'lumotlarni yurtimizga kelib kutubxonalar, O'zbekiston davlat arxivlari va boshqa nashr etilgan manbalardan foydalanib yozish bilan birga Rossiya Federatsiyasi arxiv va kutubxonalaridagi manbalarga tayangan xolda yozganligi tahsinga sazovordir. U bu bilan sobiq Sovet davrida oldingi tadqiqotchilarga sir bo'lib kelgan nafaqat O'zbekiston sovet Sotsialistik Respublikasidan balki Rossiyadan ham olishni imkoni bo'lmagan o'zbek va boshqa tillardagi manbalarni olishga erishadi. Chunki tarixdan ma'lumki, deyarli mustaqillik davriga qadar jadid adabiyoti nomoyandalari xalq dushmanlari va ularning ijodlari qoralanilar va ular haqidagi ma'lumotlar maxfiy xujjatlar sifatida saqlanar edi.

A. Xolid olgan ma'lumotlarini Britaniya, Fransiya va boshqa mamlakatlardan olgan ma'lumotlari bilan taqqosladi. U bu ishlarini maqola va tezis sifatida dunyoning (Angliya,

Rossiya, Germaniya va AQSH) ko'pgina nufuzli va xalqaro jurnallarida chop ettirishga erishdi. Misol uchun

1. Nationalizing the Revolution: The Transformation of Jadidism, 1917-1920,- in A State of Nations: Empire and Nation-Making in the Age of Lenin and Stalin, ed. Ronald Grigor Suny and Terry Martin. New York: Oxford University Press, 2001.

2. Osman Khoja and the Origins of Jadidism in Bukhara,- in Reforms and Revolutions in Turkistan: 1900-1924: A Memorial Volume for Osman Khoja, ed. Timur Kocao ugli. Haarlem, 2000.

3. Russian History and the Debate over Orientalism.- Critics, (2000).

4. Society and Politics in Bukhara, 1868-1920,- Central Asian Survey (2000).

6. Jadidism in Central Asia: Islam and Modernity in the Russian Empire,- Newsletter (Leiden), 2, March 1999

Jadidchilik ko'plab sinovlarga duchor bo'ldi. Sovuq urush davrida bu murakkab mavzu ustida ish olib bormoqchi bo'lgan kishi ikki bir biridan tamoman farq qiluvchi tarixiy yondashuvga guvoh bo'lardi. G'arbda jadidchilik Rossiya imperiyasi musulmonlarini milliy uyg'onish va yangilanish yo'lidagi yagona harakat sifatida yoritilardi. Bu fikrning asosida ikki narsa yotardi:

1) milliy liberal siyosiy harakatning ta'lim va madaniyat sohasini islox qilish va bu orqali keyingi to'la rivojlanish uchun asos bo'luvchi diniy islohoti bilan bir-biriga bog'langan turli davrlardagi faoliyati solnomasi va

2) jadidchilik harakati va u oid bo'lgan jamiyatni asosiy birlashtiruvchi g'oya (millat).

Jadidchilik Qrim va Volga tatarlari tarafidan ular diyoring har tarafida qo'llab-quvvatlangan islohotlarning debochasi, uyg'onishga chaqiruvchi qo'ng'iroq edi. Muhojirlar tomonidan turkiy tilda yozilgan jadidchilik haqidagi ma'lumotlarning asosi yuqoridagi fikrni o'zida mujassam etardi. Bu nuqtayi nazar hech qanday o'zgarishsiz shaklda Frantsiya, Britaniya va AQSHlik sharqshunoslar vositasida g'arb tomonidan to'g'ri deb qabul qilingan qarashlarga aylantirilgan edi.

Sovetlar mafkurasida jadidchilik butunlay boshqacha ko'rinishda talqin qilingan. Sobiq sovet itifoqida jadidchilik unchalik ko'p yoritilmas edi. Mavjud manbalarga ko'ra esa jadidchilik millatchi-burjua g'oyasi orqali faoliyat olib borayotgan harakat hisoblanardi jadidchilik nomoyandalari esa bu shakllanish jarayonida bo'lgan burjuaziyaning vakillari edilar. Aslida Jadidlar ziyollar kabi yangicha fikrlaydigan insomlar bo'lgan, ularda millatchi qarashlari kuzatilmagan, biroq, ularni ma'lum darajada Rossiya hukmronligining "ijobiy ahamiyatini" va "taraqqiyot vositasi ekanligini" qabul qilgan ma'rifatparvarlardan ajratib talqin etilardi. Natijada ularga turli bo'htonlar va asossiz ayblovlar qo'yilgan edi. Ayrim mualliflarning jadidlar va ma'rifatparvarlarni ajratishga qarshi bo'lgan fikrlarni berishga urinishlariga qaramay, umumiy qarashlar qayta qurish davriga qadar o'zgarmay keldi.

G'arbda jadidchilik Rus imperiyasidagi musulmonlarning yangi davr tarixini yoritishdagi asosiy mavzu sifatida talqin etilgan bo'lsa [3.77], sovet tarixi kitoblarida

asosan bir necha satrdan iborat holda eslab o'tilardi xolos. Bu mavzuda ilmiy izlanish taqiqlangan edi. G'arbda jadidchilikka oid manbalar deyarli yo'q edi, Parijda Aleksandr Bennigsen va Nyu-Yorkda Edvar Alvortning tomonidan mashaqqatlarla to'plangan manbalar yetarli emas edi. Ayrim mutaxassislar Turkiyadagi xususiy kutubxonalar yoki Xelsinkiyda Slavyan kutubxonasida qiyinchiliklar bilan olgan ma'lumotlarga tayanib, ancha ahamiyatga molik izlanishlarni olib bordilar, biroq ularning imkoniyatlari doimo chegaralangan edi. Butun manbalar Sovet Ittifoqida edi, biroq u yerda bu manbalardan foydalanishga ruxsat yo'q edi. Shuningdek, bu manbalar bilan ishlash uchun yetarli lingvistik va paleografik bilim va ko'nikmalar yetarli emas edi.

Shu bilan birga, Sovet Ittifoqining parchalanishi jadidchilikka oid izlanishlarni ba'zi jihatlardan katta o'zgarishlarga olib keldi. Biz bugun umumiy bir nuqtaga kela olmayotgan bo'lishimiz mumkin, biroq biz endi bir biridan tamoman farq qiluvchi siyosiy, mafkuraviy, metodik ziddiyatlar orqali fikr almashishimiz mumkin. Yigirma olti yil avval bular umuman bir biriga umuman mos kelmaydiganday ko'rinar edi. Bugun bu mavzu ustida ish olib borish uchun materiallarga, aytib o'tish kerakki ularning hajmi juda katta. Qolaversa, ularni qiyosiy o'rganish uchun internet ma'lumotlari ham yetarli. Bu orqali kelajakda jadidchilik harakati haqida fikrlarni umumlashtirish kerak.

#### **References:**

1. <http://www.e-adabiyot.uz/adabiyotshunoslik/tanqidchilik/166-tanqidchilik/> Adabiy tanqid: yangilanish jarayonlari
2. Adeeb Khalid. *The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia*. - Berkeley: University of California Press, 1998
3. Edward Allworth. *Uzbek literary politics*. - London-Paris. 1964
4. Ozod Sharafiddinov. *Ijodni anglash baxti*. - Toshkent, - Sharq 2004